

Buxoro viloyatidagi korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumot


O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 01.03.2020 yil holatiga shakllantirildi
(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiqu qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-mart holatiga 25 261 tani tashkil etib, ulardan 23 941 tasi yoki 94,8 % faoliyat ko'ssatmoqda. Bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 4423 taga yoki 21,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-fevral oylari davomida viloyatimizda 902 tadan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 928 taga kamdir.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha soni, 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlar qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


birlik



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-mart holatiga ko'ra)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha soni, birlikda


(1-mart holatiga ko'ra)




2020-yil 1-mart holatiga 20 434 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar 3 486 ta, oilaviy korxonalar – 1 899 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 14 841 ta, unitar korxonalar - 153 ta va boshqalar – 55 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-fevral oylarida)


birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiyligi sonidagi ulushi




2020-yilning yanvar-fevral oylarida 902 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lub, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 928 taga kamdir. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 682 ta, xususiy korxonalar – 61 ta, oilaviy korxonalar – 114 ta, muassalar 7 ta va 7 ta boshqalarni tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasidagi korxonalar va tashkilotlar tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari va tashkilotlari soni bo'yicha ma'lumotlar



2020-yil 1-mart holatiga sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 644 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120,2% ga oshdi.


Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili bo'lib (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 119,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,9 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 159,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,4 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 1,7 barobarga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 115,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) o'sishidir.

Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda




2020-yil 1-mart holatiga qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 507 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,1 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, binolar va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 121,0% ga (jami qurilishdagi ulushi 66,6%), fuqarolik obyektlarini qurish – 100,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,7 %), xitisoslash-tirilgan qurilish ishlari – 138,5% ga (jami qurilishdagi ulushi 25,7 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-mart holatiga savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 5 901 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,3 % ga oshdi. Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 132,0 % ga (jami savdodagi ulushi 63,2 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 125,7 % ga (jami savdodagi ulushi 29,4 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 110,6 % ga (jami savdodagi ulushi 7,4 %) o'sishidir.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



361

yashash bo'yicha xizmatlar




1 529

oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-mart holatiga yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1890 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 141,9 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 141,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 80,9 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 143,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 19,4 %) o'sishidir.


Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



2020-yil 1-mart holatiga axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 247 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,5 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino-video filmlari, televizion dasturlari, phonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 133,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,9 %), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 108,9 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 24,7 %), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 110,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,4 %) dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 83,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,0 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 129,6 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 28,3 %), aloqa xizmatlarning – 115,8 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 26,7 %) o'sishidir.

Oilaviy korxonalar soni, birlikda




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-mart holatiga 2 033 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 815 taga yoki 1,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 899 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 735 taga yoki 1,6 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan oilaviy korxonalar soni 134 mingtani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 80 taga yoki 2,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni, birlikda




Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-mart holatiga 15 598 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 232 mingtaga yoki 126,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 841 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 025 taga yoki 125,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 757 tani tashkil etib, bu ko'satkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 207 taga yoki 137,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

2020 y.




- Savdo
- Sanoat
- Boshqa turlari
- Qurilish
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tashish va saqlash
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2019 y.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, yanvar-fevral oylarida birlikda



Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Buxoro viloyati	281	154	127
Buxoro shahar	146	73	73
Kogon shahar	15	11	4
Olot tuman	6	1	5
Buxoro tuman	11	8	3
Vobkent tuman	7	6	1
G'ijduvon tuman	11	6	5
Kogon tuman	21	18	3
Qorako'l tuman	8	3	5
Qorovulbozor tuman	9	5	4
Peshku tuman	17	6	11
Romitan tuman	10	4	6
Jondor tuman	11	7	4
Shofirkon tuman	9	6	3


Buxoro viloyatida xorijiy davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	56	35	21
Turkmaniston Respublikasi	36	12	24
Turkiya Respublikasi	34	23	11
Xitoy xalq Respublikasi	31	17	14
Afg'oniston Respublikasi	20	7	13
Koreya Respublikasi	22	11	11
Eron Islom Respublikasi	13	8	5
Amerika Qo'shma SHtatlar	11	8	3
Hindiston Respublikasi	7	3	4
Boshqa mamlakatlar	51	34	17


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda




Tumanlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar kesimida taqsimoti, %



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimida soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda



2020-yil 1-mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Buxoro shahri 4 829 ta (jamidagi ulushi 32,5 %), Romitan 1 560 ta (10,5 %), Gijduvon 1 447 ta (9,7 %), Jondor 1 142 ta (7,7 %), Buxoro 1 068 ta (7,2 %), Peshku 954ta (6,4 %), Shofirkon 831 ta (5,6%) va Kogon 759 ta (5,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamroq o'sishi Qorako'l 540 ta (3,6 %), Kogon shahar 496 ta (3,3 %), Qorovulbozor 334 ta (2,3 %), Olot 251 ta (1,7 %), Vobkent 621 ta (4,2%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Tumanlar kesimida kichik korxona va mikrofirmalarning faoliyat holatlari bo'yicha tarkibi, % da




2020-yil 1-mart holatiga kichik korxona va mikrofirmalar soni 20 434 tani tashkil etdi. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,9 % ga ko'pdir. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Buxoro shahri (6 704 ta), G'ijduvon (2 138 ta), Romitan (1 778 ta) va Buxoro (1 525 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami Qorovulbozor (404 ta), Olot (539 ta), Kogon sh. (796 ta), Vobkent (874 ta), hamda Qorako'l (967 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Tumanlar kesimida oilalar va faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda


	Oilalar soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.03.2019 yil	01.03.2020 yil
Buxoro viloyati	512 987	16 492	20 434
Buxoro sh.	87 175	5 578	6 704
Kogon sh.	15 915	590	796
Buxoro	41 422	1 187	1 525
Vobkent	36 097	705	874
Jondor	45 425	1 111	1 338
Kogon	20 712	836	1 063
Olot	26 322	447	539
Peshku	33 176	960	1 182
Romitan	34 895	1 320	1 778
Shofirkon	44 721	937	1 126
Qorako'l	41 919	772	967
Qorovulbozor	5 322	284	404
G’ijduvon	79 886	1 765	2 138

2020-yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni, birlikda




2020-yilning fevral oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Buxoro sh. (23 ta), Kogon sh. (12 ta), Peshku (9 ta), Romitan (6 ta), G'ijduvon (20 ta), Vobkent (12 ta), Buxoro (8 ta), Jondor (4 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor tumanida yangi oilaviy korxonalar tashkil etilmagan, Jondor (4 ta), Qorako'l (4ta), Olot (5 ta), Shofirkon tumanlarida(4 ta) korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'satkichi past darajani aks ettirgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnomalar usidagi, vaqtiga-saqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriderda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Statistik registrlarni yuritish

Tel.:71-230-83-20 (21)

